**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**NAMANGAN DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**«TASDIQLANDI»**
Namangan davlat pedagogika instituti
rektori v.v.b. ____________ M.R.Qodirxonov
« ___ » _______ 2023-yil

**60112700-Maxsus pedagogika (logopediya) ixtisosligidan**

**2023/2024-o'quv yili uchun ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha imtihon**

**DASTURI VA BAHOLASH MEZONI**

**NAMANGAN – 2023**

## ANNOTATSIYA

Talabalarni oliy ta'lim tizimiga tayyorlash, umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim va oliy ta'limni uzviyligini ta'minlash, ruhiy va jismoniy rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar uchun maxsus muassasalarda korrektsion ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish hamda usullari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir, o'quv jarayonini tashkil etishning metod va shakllariga qo'yilgan zamonaviy talablar, ta'lim oluvchilar shaxsi omillari, uning shakllanish taraqqiyoti, yagona o'quv-tarbiya jarayoni tashkil etish va amalga oshirish, tarbiya jarayonining qonuniyatlari va tamoyillari amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilish asosiy maqsaddir.

Pedagogik qonuniyatlar hamda tamoyillarga asoslangan holda o'quv-tarbiya ishlarini o'tkazish, ta'limni tashkil etishning asosiy shakllarini amaliyotda qo'llash, pedagogik vaziyatlarni, ta'lim va tarbiya natijalarini tahlil etish. O'quvchilar jamoalarini o'rganish, ta'limda orqada qolish sabablarini aniqlash va ahamiyatini ochib berishga oid nazariy asoslarini o'z ichiga oladi.

Mazkur savollar O'zbekiston Respublikasi Davlat ta'lim standartiga asoslangan xolda, –Ta'lim to'g'risidallgi Qonun talablariga mos ravishda, amaldagi na'munaviy dasturlar asosida tuzildi.

**Tuzuvchilar:** **dotsent, PhD M.Asranbayeva**
**PhD M.To'raboyeva**
**PhD S.Sulaymonova**

**Taqrizchi:** **dotsent, PhD M.Asqarova**

Dastur NamDPI Maktabgacha va boshlang`ich ta`lim metodikasi kafedrasi 2023 yil 24 iyundagi 11-sonli yig'ilishida muhokama qilingan va ma'qullangan.



## KIRISH

Ushbu dastur 60112700-Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi bo'yicha ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchilar uchun mo'ljallangan bo'lib, Davlat ta'lim standartlari talablari asosida tuzilgan.

**Fanning mazmuni**

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarga bola nutqini ontogenetik rivojlanish bosqichlarini va ona tilini o'zlashtirish tizimi qonuniyatlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirishdan iborat.

Fanning vazifasi - talabalarga ta'limiy-korreksion jarayonini nutqida nuqsoni bo'lgan shaxsni psixofiziologik, yoshga doir xususiyatlari va individual ta'limiy ehtiyojlariga tayangan tarzda amalga oshirish, kasbiy faoliyatdagi taqdiqit masalalarini qo'yish va hal etishda defektologik, pedagogik, psixologik, lingvistik, tibbiy-biologik bilimlarni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

**Kommunikativ kompetentlik ko'rsatkichlari:**

-psixik va jismoniy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan shaxslar va ularning oilasiga empatik va insonparvar munosabatda bo'lishi;
- tashviqot ishlarini olib borishni, o'quv-metodik ishlar bo'yicha munozara yuritishni, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolaning huquqlarini himoya qilishni bilishi;
- o'zgalar bilan o'zaro hurmat asosiga qurilgan munosabatlarni o'rnata olishi;
- o'zini tutishda, boshqalar bilan munosabatga kirishishda, qaror qabul qilishda va resurslarni boshqarishda axloq normalariga rioya etish;
- milliy qadriyatlarni, shaxs erkinligi va uning mas'uliyati, ijtimoiy adolatni himoya qila olish;
- hamkasblari va boshqa mutaxassislar bilan muloqot qilishni, rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolani o'qitish, tarbiyalash va reabilitatsiya qilish bo'yicha jamoaning faol a'zosi sifatidagi defektolog uchun zarur bo'lgan malakalarni egallagan bo'lishi kerak.

**Axborot kommunikatsiya texnologiyalari va media savodxonlik kompetentligi ko'rsatkichlari:**

- ta'lim muassasasini axborotlashtirish g'oyalarini ilgari surish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari madaniyatini rivojlantirish va ushbu g'oyalarni amalga oshiruvchi ta'lim muhitini shakllantirishni ta'minlash;
- axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan ta'lim strategiyalarini joriy etishga ko'maklashish;
- ta'lim jarayonida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning ijtimoiy, huquqiy va axloqiy normalari ahamiyatini tushunish, ulardan xavfsizlikni ta'minsh;
- ta'lim mazmuniga mos bo'lgan axborot kommunikatsiya texnologiyalarini o'qitish vositasi sifatida ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning turli samarali strategiya va yondashuvlarini rejalashtirish, ilgari surish va qo'llab-quvvatlash;
- maktab boshqaruvida va fanlarni o'qitish jarayonida faoliyatni takomillashtirish va

samarali tashkil etishda axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini joriy etilishini ta'minlash;
- ta'lim muassasa faoliyatini va o'quvchilar kompetentsiyasini baholashning samarali usullarini joriy etishda axborot texnologiyalaridan foydalanish;
- ommaviy axborot vositalaridagi media kontentni tushunish, media savodxonlik elementlarini o'zida mujassam etgan holda ularni o'quvchilarda shakllantirish yo'llarini bilish;
- turli shakllar va vositalar orqali axborotlarni tahlil etish, baholash, qayta ishlash va yangi ma'lumotlarni yaratish.

**Diagnostik-maslahat kompetentsiyasi ko'rsatkichlari:**
- kasbiy rivojlanish uchun individual rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- turli yosh bosqichlari va bolalar rivojlanishidagi turli xil nuqsonlarni psixologik-pedagogik va logopedik tashxis qilishning standartlashgan metodlarini, bolalarni tekshirishni to'g'ri tashkil qilishni va tekshirishdan olingan natijalarni yakka korrektsion-rivojlantiruvchi dastur tuzish hamda bolani tegishli ta'lim muassasasiga yo'naltirish maqsadida taxlil qilishni bilishi;
- korrektsion-rivojlantiruvchi ta'sir samaraliligini baholash maqsadida dinamik kuzatuvni amalga oshirishni bilishi;
- tibbiy-psixologik-pedagogik komissiya faoliyatini tashkil etishni bilishi;
- ota-onalarga bolada mavjud nuqsonlarning xususiyatlari va uning rivojlanish istiqboli haqidagi ma'lumotlar berishni, ularni korrektsion-pedagogik faoliyat jarayoniga teng huquqli partnerlar sifatida jalb eta olishi;
- ilk yoshdagi bolalarni psixologik-pedagogik tomondan erta tashxis qilishni, ular uchun yakka korrektsion-rivojlantiruvchi dasturni ishlab chiqishni bilishi kerak.

**Mas'uliyat va moslashuvchanlik kompetentsiyasi ko'rsatkichlari:**
-ta'lim jarayonida yuz berayotgan turli o'zgarishlarga va yangilanish jarayonlariga tez va oson moslasha olish;
-ta'limdagi yangi yondashuv va strategiyalarni qabul qila olish, ularni egallash va o'z kasbiy amaliyotiga joriy eta olish;
-turli xil yangi vazifalar va mas'uliyatlarni qabul qila olish;
-o'ziga, jamoaga va jamiyatga nisbatan mas'uliyatli bo'lish;
-o'ziga va ta'lim muassasa xodimlariga nisbatan yuqori maqsad va standartlarni belgilash va ularga erishish.
-har bir o'quvchining o'zlashtirishi va muvaffaqiyatli ta'lim olishiga mas'uliyatni o'z zimmasiga olish;
-ta'lim muassasa hayotida ota-onalar va jamiyatning boshqa vakillarining samarali va konstruktiv ishtirokini ta'minlash maqsadida hamkorlikni rivojlantirish;
-o'quvchilarning ta'lim va tarbiya jarayonini yaxshilash maqsadida jamiyatning turli resurslaridan samarali foydalanishni amalga oshirish;
-ta'lim muassasasining turli davlat, nodavlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorligini tashkil etish va tajriba almashish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
-ota-onalarni ta'lim jarayoniga jalb etishning turli strategiyalarini bilish;
-o'quvchilarning sifatli ta'lim va tarbiya olishlari uchun muassasa, jamoat tashkilotlari va ota-onalar o'rtasida (brending) hamkorlik va raqobat muhitini



qo'llab-quvvatlash;
-ta'lim jarayonining markaziga o'quvchini qo'yish va har bir o'quvchining o'zlashtirish va muvaffaqiyatli bo'lishi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olish.

**Inklyuziv ta'limni joriy etish kompetentligi ko'rsatkichlari:**
-imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilishga oid qonun hujjatlarini bilish va ularning ta'lim olishlarini qo'llab-quvvatlashning turli strategiyalarini bilishi;
-imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb etishga qaratilgan tadbirlarni ishlab chiqish va joriy eta olish;
- rivojlanishida psixik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakllari va metodlarini bilishi va ularni amalda qo'llay olishi;
- rivojlanishida psixik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalarida sinfdan tashqari ishlarning mazmuni, shakllari va metodlarini bilishi va ularni amalda qo'llay olishi;
- rivojlanishida psixik va jismoniy nuqsonlarga ega bo'lgan bolalar uchun maxsus ta'lim muassasalarida fanlarni o'qitishning maxsus metodikalarini egallagan bo'lishi;
- nutqning fonetiko-fonematik, leksik-grammatik tomonidagi, o'qish va yozishdagi nuqsonlarni, duduqlanish va nutqning to'liq rivojlanmaganligini bartaraf etish yuzasidan ishlarni olib borishni bilishi;
- rivojlanishida og'ir va ko'p nuqsonga ega bo'lgan bolalar uchun ularning psixik va ijtimoiy rivojlanishini kompleks baholash asosida yakka rivojlantirish dasturini ishlab chiqish va amalga oshirishni bilishi;
- maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni o'qitishda o'yin va interfaol texnologiyalarni qo'llashni bilishi;
- ijtimoiy himoya va sog'liqni saqlash tizimi tassarrufidagi muassasalarda (ilk yoshdagi bolalar uylari va "Muruvvat" uylari) korrektsion-rivojlantiruvchi ishlarni tashkil etish uchun sharoit yaratish va bu ishlarni tashkil etishni bilishi;
- inklyuziv ta'limni amalga oshirish maqsadida umumta'lim muassasalarida korrektsion-pedagogik faoliyatni amalga oshirishni bilishi;
- rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida himoya-pedagogik kun tartibini tashkil etishni, korrektsion-pedagogik faoliyatni va boshqa ishlarni bolalarning psixik va jismoniy imkoniyatlarini e'tiborga olib sog'lig'ini mustahkamlashga qaratgan holda tashkil etishni bilishi;
- murakkab pedagogik vaziyatlar yuzaga kelganda ularni hal etish bo'yicha ijodiy potentsialga ega bo'lishi, korrektsion-pedagogik jarayonlarni, ta'limning mazmuni va metodlarini bolaning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moslashtira olishi;
- tabiiy ofatlar va kutilmagan vaziyatlarda bolalar va o'quvchilarning hatti-harakatlarini to'g'ri tashkil etishni bilishi kerak.

**Huquqiy kompetentlik ko'rsatkichlari:**
-qonunchilik normalarini bilish hamda ularga og'ishmay rioya qilish;
-ta'limning normativ-huquqiy hujjatlari va metodologik asoslarini bilish va kasbiy faoliyatda samarali foydalana olish;
-o'z kasbiy faoliyatiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish;

-bolalarning huquqlari to'g'risidagi Qonun va qonun osti normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va ularga rioya qilish;
ish yuritish bilan bog'liq huquqiy asoslarga rioya etilishini ta'minlash;
-qonunchilikka muvofiq ish yuritishning olib borilishiga javob berish;
-mavjud tartibga muvofiq oldindan belgilangan muddatlarda ish yuritish sifatini ta'minlash;
-ish yuritishda shaffoflik va ommaviylik tamoyillarini qo'llash;
-ta'lim muassasaning hisobot, shu jumladan moliyaviy hisobot masalalariga taalluqli qonunchilik bazasining bajarilishini ta'minlash.

**Xususiy kompetentsiyalar.**

Xalq ta'limi tizimi, o'rta maxsus va profetsional ta'lim xodimlarining mehnat faoliyatiga bog'liq bo'lgan xususiy kompetentsiyalar mavjud.

Rahbar xodimlarning xususiy kompetentsiyalari:

1. Boshqaruv kompetentsiyasi.
2. Moliyaviy-iqtisodiy kompetentsiya.

**Boshqaruv kompetentligi ko'rsatkichlari**:

- ta'lim oldidagi dolzarb maqsadlarni qo'ya olish va ularni amalga oshirishning samarali yo'llarini belgilay olish;
-ta'lim muassasasini rivojlantirish strategiyalarini belgilay olish;
-ta'lim mazmuni va strategiyalarini tushunishini namoyish qila olish;
turli ta'lim yondashuvlari, strategiyalari, texnologiya va metodlarini tushunish va farqlay olish;
- Davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va baholash mezonlarini ta'lim jarayoniga joriy etish yo'llarini bilish va buning uchun tegishli shart-sharoitlar yarata olish;
Ta'lim tashkilotlari faoliyati sohasida ilg'or xalqaro tajribalar asosida innovatsion g'oyalar, ishlanmalar va texnologiyalardan foydalanish jarayonini boshqarish;
ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish;
ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarning xavfsizligini ta'minlash;
ta'lim olish muhitining motivatsiya asosida tashkil eta olish;
ta'lim muassasasiga kadrlarni ishga olish, ularni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish;
rag'batlantirish shakllarini qo'llay olish
kadrlar zaxiralarini rejalashtirish, boshqarish, yangi kadrlarni tayyorlash;
kadrlar salohiyati va tajribasini oshirish, ularning kasbiy bilim va malakalarini rivojlantirishga ko'maklashish;
kadrlarning kasbiy saviyasini oshirishga qaratilgan faoliyatini qo'llab-quvvatlash va motivatsiyasini oshirish;
ta'lim sifatini oshirish maqsadida muassasaning kadrlar, moliyaviy, moddiy resurslarini boshqara olish;
boshqaruvda shaffoflik, adolatlilik, o'zaro ishonch, hamkorlik, qat'iyatlilik sifatlarini namoyish qilish.

**Kasbiy kompetentsiyalar:**

- o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;
- turli yosh davrlarida insonning xulq-atvori va faoliyatini boshqarishning o'ziga



xosliklari, psixik va psixofiziologik rivojlanishning maxsus qonuniyatlari hamda individual o'ziga xosliklarini hisobga olish vositalaridan foydlanish qobiliyatiga egalik; ota-onalar(yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan munosabatga kirisha olish;
- me'yoriy-xuquqiy xujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lishi;
- ta'lim yo'nalishlari bo'yicha oliy ma'lumotli shaxslar egallashi lozim bo'lgan lavozimlarda mustaqil ishlashga;
- kasbiy sohadagi muammolarni aniqlash va ularni hal qilishda samarali texnologiyalarni qo'llashga;
- intellektual faoliyatning tahlil, tarkib va boshqa metodlarini qo'llagan holda muammoni tadqiq etishga;
- kasbiy vazifalarni hal etishda turdosh sohaga doir bilimlarni integratsiyalashga;
- turli yosh guruhidagi bolalarning rivojlanishi, muloqoti, faoliyatini tashxis etish metodlaridan foydalanish qobiliyatiga egalik;
- pedagoglik kasbining yuksak ijtimoiy ahamiyat kasb etishini tushunish, kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish;
- alohida yordamga muhtoj bolalar bilan faoliyatda shaxsga yo'naltirilgan va individual-differentsirlashgan yondoshuv asosida samarali korrektsion-rivojlantiruvchi dasturlarni tanlash va amalga oshirishga;
- o'zining raqobatbardoshligini ta'minlash uchun kasbiy bilimlarini boshqarishga;
- tegishli bakalavriat yo'nalishlari doirasida tanlangan mutaxassislik bo'yicha magistraturada oliy ta'limni davom ettirishga;
- kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish tizimida qo'shimcha kasb ta'limi olish uchun tayyorlanadilar.

**Fanga doir kompetentsiyalar.**

- maxsus pedagogika (logopediya) va inklyuziv ta'limining o'ziga xosliklarini anglash, turli tipdagi ta'lim muassasalarida bolalarni o'qitishda uzviylikni amalga oshirish vositalarini egallaganlik;
- logopediyaning nazariyasi va amaliyotiga doir zamonaviy bilimlarni egallaganlik;
- logopediyaga doir bilim, ko'nikma va malakalarni qo'llay olish hamda egallangan tayanch bilimlarni shaxslarga yetkazish qobiliyati;
- logopediya fanidan sohaning nazariy asoslarini puxta egallagan bo'lishi va undan turdosh tarmoqlarda samarali foydalana olishi, jumladan korrektsion-rivojlantiruvchi jarayonni tashkil etish, tahlil qilish va baholash tamoyillari, usullari hamda shakllarini haqidagi bilimga, amaliy xarakatlarni bajarish ko'nikmasiga va malakasiga ega bo'lishi;
- nutq nuqsoni bo'lgan bolalarga psixologik-pedagogik tavsifnoma tuzish; psixik jarayonlarini o'rganish, tekshirish uchun uslubiyatlari, didaktik materiallarni tanlash, ulardan amalda foydalanish usullarni bilish;
- nutq nuqsoni bo'lgan bolalar nuqsonlarni aniqlashtirish maqsadida va yakka tartibdagi korrektsion-pedagogik ish rejasini tuzish uchun kompleks psixologik-pedagogik tekshiruvni tashkil etish; tekshiruvni mezonlar bo'yicha tahlil qilish; tekshiruv metodlarning ishonchiligini baholashni bilish;
- nutq nuqsoni bo'lgan shaxslarning imkoniyatlari va ehtiyojlariga muvofiq

korrektsion-pedagogik ish usullarni tanlash;

- rivojlanishida jismoniy yoki psixik nuqsonlari bo'lgan tarbiyalanuvchilarga ta'lim-tarbiya berish, ularni ijtimoiy moslashuvi, shuningdek rivojlanishidagi nuqsonlarni korrektsiya qilish uchun qulay shart-sharoitlar, shu jumladan inklyuziv ta'lim muhitini yaratish yuzasidan mutaxassislar va ota-onalar bilan hamkorlikda ishlash;

- Logopediya fanining rivojlanishi, tarixi, pedagogik texnologiyalar, o'qitish metodlari, o'qitish vositalarini amaliyotga samarali qo'llay olishi, ta'limni DTS me'yorlari, o'quv dasturlariga ko'ra tashkil etishi, baholash mezonlarini tushunishi, xalqaro baxolash tadqiqotlarini bilishi va o'quvchilarning tabiiy-ilmiy savodxonligini (PISA kontekstlari) rivojlantirish faoliyatida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalana olish ko'nikma va malakalariga ega bo'lishi;



## Asosiy qism

**1- mavzu. Fanning predmeti va vazifalari. Me'yor va patologiya tushunchasi**

Me'yor tushunchasi. Statistik me'yor. Funksional yoki individual me'yor. Ideal me'yor. Ijtimoiy me'yor. Guruhiy me'yor. Me'yor me'zonlari. Patologiya va anomallik tushunchalari.

**2 –mavzu. Potologiya va anomal tushunchalari.**

Meyor, potologiya va anomalik tushunchalari

**3 -mavzu Tilni egallash konsepsiyalari**

Nutq oliy psixik funksiya sifatida. Tug'ma bilimlar nazariyasi (N.Xomskiy, D.Maknil, D.Slobin). Tilni o'zlashtirishning kognitiv nazariyasi. J.Piajening bolaning semiotik rivojlanish gipotezasi. Tilni o'zlashtirish asoslarini ijtimoiy-prognostik yo'nalishda o'rganish (Dj.Bruner, M. Xellidey). L.S. Vыgotskiyning "nutq - til belgilari vositasida rivojlanuvchi o'ziga xos faoliyat sifatida" konsepsiyasi. Inson xulq-atvorini belgili regulatsiyasi (A.R. Luriya).

**4 -mavzu. Nutqning psixofiziologik mexanizmlari.**

Nutqning anatomik-fiziologik mexanizmlari. Markaziy va periferik nutq apparati. Nutqning neyrofiziologik mexanizmlari. Nutqning psixologik mexanizmlari.

**5-mavzu: Nutq rivojlanishining boshlang'ich bosqichlari.**

Rivojlanish tushunchasi. Bosqich va davrlar. Senzitiv davr xususiyatlari. Yosh krizislari va ularning xususiyatlari.

**6 -mavzu. So'zni tovushli shaklini o'zlashtirish**

Nutqiy ontogenezni dastlabki bosqichi.

**7 –mavzu. Nutqni tug'ma asoslari.** Chaqaloqning qichqirishi va yig'isi, ularni bolaning sub'ektiv holati bilan aloqasi. Bolalik davrini dastlabki vokalizatsiyasi: gugulash va guvrash, ularni biologik determinatsiyasi. Gugulash davri xususiyatlari. Guvrashning fonetik boyligi va hilma-hilligi. Guvrash tuzilmalarinin ahamiyati va o'zgarish xususiyatlari. Ona tilini hissiy-ifodaviy vokalizmini o'zlashtirish. "Nutqiy imo-ishoralar" fonemalarni yuzaga kelish asoslari sifarida. Nutqning artikulyasion tomonini o'zlashtirish qonuniyatlari.

**8 -mavzu. Bola nutqining leksikasini rivojlanishi**

So'zli nutq texnikasiga o'tish. Dastlabki bolalar leksikoni xususiyatlari: uning tarkibida guvrash komplekslarini mavjudligi, tovush-taqlidiy so'zlarni qo'llash.

Tovush-taqlidiy nominatsiya va protiso'zlardan me'yoriy so'zlarga o'tish. Nominatsiyalash mexanizmlarini shakllanishi. Bolalar nominatsiyasining semantik va grammatik funksiyalari.

So'zni belgilash xususiyatlari bilan tanishish jarayoni: denotativ va signifikativ mazmunlarni shakllanishi. Bola nutqini til vositalari xarakteristikasi.

Bolalar tomonidan so'zlarni ma'nisini talqin etish xususiyatlari, ularni semantizatsiyasi usullari. To'g'ri va ko'chma ma'no: verbal assasiatsiyalar rivojlanishi. So'zni leksik-grammatik variantlarini o'zlashtirish.

**9- mavzu. Tilni grammatik qonuniyatlarini o'zlashtirish**

Bolalar nutqini amaliy grammatikasi, unu kattalar grammatikasidan farqi. Tilni grammatik qonuniyatlarini o'zlashtirish jarayoni, ularni nutqiy maxsulini yaratishdagi ustunligi.

**10 -mavzu. Morfologiyani rivojlanishi.** Grammatik shakllarni ivojlanishining asosiy tandensiyalari.

So'z hosil qilishni rivojlanishi. So'z hosil qilish modelini o'zlashtirish jarayonini.

Sintaksisni rivojlanishi. Bir so'zli gaplar. Ikki so'zli gaplar (protogaplar)ni shakllanishi. Ko'p so'zli jumlalarga o'tish. Sintaktik me'yorlarni tipik buzilish holatlari.

**11- mavzu. Bog'langan nutqni ontogenetik rivojlanishi**

Bog'langan nutq psixologik va lingvistik o'rganish ob'yekti sifatida, uni shakllanish bosqichlari, rivojlanish jarayonida bog'langanlik shakllarinin o'zgarishi.

Egosentrik nutq fenomeni, J.Piaje tadqiqotlarida egosentriklik konsepsiyasi. Egosentriklik nutqi konsepsiyasini L.S. Vыgotskiyning ichki nutq konsepsiyasi bilan yaqinlik holatlari. Nutq rivojlanishini situativ yaqinligi

Dialog qurish texnikasini o'zlashtirish. Maktabgacha yoshdagi bolaning monologik nutqi, uning reproduksiyalovchi va ihtiyoriy fazalari.

**12-mavzu. Maktabgacha yoshdagi bolalarda motorika va sensorikaning shakllanishi hamda rivojlanishi**

"Sensorika" va "motorika" tushunchalari. Bolalar sensomotor rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar. Bolalar sensomotor rivojlanishining yosh xususiyatlari.

**13 -mavzu. Bolalarda nutqning intonatsion tomonini ontogenezda rivojlanishi.**

Nutq intonatsiyasining erta va kech ontogenez bosqichlarini aniqlash. Yosh bolalarda nutq signallari intonatsiyasining semantik tarkibi. Intonatsiya elementlari. Bolalar ovozi va nutqini rivojlanishida intonatsiyaning ahamiyati.

**14- mavzu. Nutqning me'yoriy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar.**

Bola nutqini normal rivolanishining shart-sharoitlari. Nutqning me'yoriy rivojlanishiga ta'sir etuvchi faktorlar (anatomik xusutsiyatlar, fiziologiya, emotsional va ijtimoiy komponentlar)

**15 -mavzu. Bolalar nutqining me'yoriy rivojlanishini davrlashtirish.** Yosh davrlari bo'yicha bolalar nutqiy ko'rsatkichlarini sxemalashtirish.

**60112700-Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishi ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchilarning bilim darajasini sinash maqsadida tuzilgan savollar**

1. Pereferik nutq apparati tuzilishi.
2. Nutqni neyrofiziologik mexanizmlari



3. Bola nutqini rivojlanishida eshitish va ko'rishning o'rni
4. Nutqning tug'ma asoslari.
5. Guvrash jarayonining davrlari
6. Bolalar nutqida ona tili tovushlarini paydo bo'lish ketma-ketligi.
7. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar nutqida odatiy fonetik xatolar
8. Maktabgacha tarbiya yoshdagi nutqnig to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqning fonetik tomonini shakllanish hususiyatlari.
9. Bolalar lug'at boyligini shakllanishining asosiy bosqichlari
10. Maktabgacha tarbiya yoshdagi nutqnig to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqning leksik tomonini shakllanish hususiyatlari.
11. Bolalar tomonidan nutqni morfologik qonuniyatlarini o'zlashtirishi
12. Ontogenezda so'z hosil qilish mexanizmlarini shakllanishi
13. Bolalar nutqida sintaktik mexanizmlarini shakllanishi
14. Maktabgacha tarbiya yoshdagi nutqnig to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllanish hususiyatlari.
15. Ontogenezda bog'langan nutqni shakllanishining asosiy bosqichlari
16. Ж.Пиаже Ж.Пиаже tadqiqotlarida egosentriklik konsepsiyasi.
17. Л.С.Виготский tadqiqotlarida ichki nutq konsepsiyasi.
18. Kontekstli nutq hususiyatlari.
19. Maktabgacha tarbiya yoshdagi nutqnig to'liq rivojlanmagan bolalarda bog'langan nutqni shakllanishi hususiyatlari.
20. Pereferik nutq apparati tuzilishi.
21. Nutqni neyrofiziologik mexanizmlari
22. Bola nutqini rivojlanishida eshitish va ko'rishning o'rni
23. Nutqning tug'ma asoslari.
24. Guvrash jarayonining davrlari
25. Bolalar nutqida ona tili tovushlarini paydo bo'lish ketma-ketligi.
26. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar nutqida odatiy fonetik xatolar
27. Maktabgacha tarbiya yoshdagi nutqnig to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqning fonetik tomonini shakllanish hususiyatlari.
28. Bolalar lug'at boyligini shakllanishining asosiy bosqichlari
29. Maktabgacha tarbiya yoshdagi nutqnig to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqning leksik tomonini shakllanish hususiyatlari.
30. Bolalar tomonidan nutqni morfologik qonuniyatlarini o'zlashtirishi
31. Ontogenezda so'z hosil qilish mexanizmlarini shakllanishi
32. Bolalar nutqida sintaktik mexanizmlarini shakllanishi
33. Maktabgacha tarbiya yoshdagi nutqnig to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllanish hususiyatlari.
34. Ontogenezda bog'langan nutqni shakllanishining asosiy bosqichlari
35. Ж.Пиаже Ж.Пиаже tadqiqotlarida egosentriklik konsepsiyasi.
36. Л.С. Виготский tadqiqotlarida ichki nutq konsepsiyasi.
37. Kontekstli nutq hususiyatlari.
38. Maktabgacha tarbiya yoshdagi nutqnig to'liq rivojlanmagan bolalarda bog'langan nutqni shakllanishi hususiyatlari.

39. Bolalar lug'at boyligini shakllanishining asosiy bosqichlari
40. Bola nutqini rivojlanishida eshitish va ko'rishning o'rni
41. Pereferik nutq apparati tuzilishi.
42. Kontekstli nutq hususiyatlari.
43. Ontogenezda bog'langan nutqni shakllanishining asosiy bosqichlari
44. Ontogenezda so'z hosil qilish mexanizmlarini shakllanishi
45. Guvrash jarayonining davrlari
46. Pereferik nutq apparati tuzilishi.
47. Nutqni neyrofiziologik mexanizmlari
48. Bola nutqini rivojlanishida eshitish va ko'rishning o'rni
49. Nutqning tug'ma asoslari.
50. Guvrash jarayonining davrlari
51. Bolalar nutqida ona tili tovushlarini paydo bo'lish ketma-ketligi.
52. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar nutqida odatiy fonetik xatolar
53. Maktabgacha tarbiya yoshdagi nutqnig to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqning fonetik tomonini shakllanish hususiyatlari.
54. Bolalar lug'at boyligini shakllanishining asosiy bosqichlari
55. Maktabgacha tarbiya yoshdagi nutqnig to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqning leksik tomonini shakllanish hususiyatlari.
56. Bolalar tomonidan nutqni morfologik qonuniyatlarini o'zlashtirishi
57. Ontogenezda so'z hosil qilish mexanizmlarini shakllanishi
58. Bolalar nutqida sintaktik mexanizmlarini shakllanishi
59. Maktabgacha tarbiya yoshdagi nutqnig to'liq rivojlanmagan bolalarda nutqning grammatik qurilishni shakllanish hususiyatlari.
60. Ontogenezda bog'langan nutqni shakllanishining asosiy bosqichlari

**60112700-Maxsus pedagogika (logopediya) yo'nalishidan ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchi talabgorlar uchun mutaxassislik fanidan davogarlar bilimini baholash**

**MEZONLARI:**

Mazkur yo'nalish bo'yicha kirish sinovi mavjud o'quv dasturlari asosida tuzilgan savollar asosida amalga oshiriladi.

Har bir variantda 3 ta savol mavjud bo'lib, birinchi va ikkinchi savol uchun esa maksimal **30 ball,** uchinchi savol uchun maksimal **40 ball** belgilangan.

Variantdagi **birinchi** va **ikkinchi savol**ga berilgan javoblarning mazmuniga qarab, ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni aniq, to'liq va mantiqan to'g'ri yoritib berilsa. Bundan tashqari, javob hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq xolda, yoritilsa, 26 – 30 balgacha qo'yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni to'liq, yaxshi yoritilsa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 21 – 25 balgacha qo'yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o'rtacha yoritilsa, javob to'g'ri berilsa,



mavzular asoslansa, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 16- 20 balgacha qo'yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmasa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmasa, savol bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmasa, umuman javob berilmasa yoki noto'g'ri javob va ma'lumot berilsa, 0-15 balgacha qo'yiladi.

Variantdagi **uchinchi savolga** berilgan javoblarning mazmuniga qarab, ularga quyidagicha miqdorda ballar belgilanadi:

1. Mazkur savolning mazmuni aniq, to'liq va mantiqan to'g'ri yoritib berilsa. Bundan tashqari, javob hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liq xolda, yoritilsa, 35 – 40 balgacha qo'yiladi.

2. Mazkur savolning mazmuni to'liq, yaxshi yoritilsa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalangan, mavzular asoslangan, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 28 – 34 balgacha qo'yiladi.

3. Mazkur savolning mazmuni o'rtacha yoritilsa, javob to'g'ri berilsa, mavzular asoslansa, ammo ayrim noaniqliklar va chalkashliklarga yo'l qo'yilsa, 22- 27 balgacha qo'yiladi.

4. Mazkur savolning mazmuni talab darajasida yoritilmasa va hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti yutuqlaridan foydalanilmasa, savol bo'yicha aniq tasavvurga ega bo'lmasa, umuman javob berilmasa yoki noto'g'ri javob va ma'lumot berilsa, 0-21 balgacha qo'yiladi.

60110100 – Pedagogika ta'lim yo'nalishidan ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchi talabgorlar bilimini aniqlash maqsadida tuzilgan baholash mezoni Jismoniy madaniyat kafedrasining 2021 yil 28 sentyabrdagi 2-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ma'qullangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 - йил 6 – ноябрдаги "Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим - тарбия ва илм - фан соҳаларини ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида " ги ПФ - 6108 - сон фармони.
3. "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси" тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60 -сонли Фармони
4. М.Х.Тўхтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. Педагогика дарслик.Т.: Ўзбекистон файласуфлари Миллий жамияти, 2010.
5. Ҳошимов К.,С.Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. Ўқув қўлл.И-жилд. – Т.: Ўқитувчи1999.
6. Ҳошимов К., С.Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. Ўқув қўлл.И-жилд. – Т.: Ўқитувчи,2010.
7. Ходжаев Б.Х. Умумий педагогика назарияси ва амалиёти. Дарслик – Т.: САНО-СТАНДАРТ, 2017.
8. Sh.E.Toxtiyarova, Sh.V.Shokirova, N.Z.Abidova. Nutqning ontogenezda rivojlanishi. O'quv qo'llanma. T.;2020
9. Kolesnikova G. I., Kabaruxina I.A. Spesialnaya psixologiya i pedagogika. Rostov na - Donu. 2007.
10. Spesialnaya psixologiya. Pod. red Lubovskogo V.I. Uchebnoe posobie. M.: 2005.

**8.**

60110100 – Pedagogika ta'lim yo'nalishidan ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumot olish bo'yicha kiruvchi talabgorlar bilimini aniqlash maqsadida tuzilgan baholash mezoni Jismoniy madaniyat kafedrasining 2021 yil 28 sentyabrdagi 2-sonli yig'ilishida muhokama qilinib, ma'qullangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ўзбекистон республикасини янада ривожлантириш бўйича харакатлар стратегияси тўғрисида. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда)
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 - йил 6 – ноябрдаги "Ўзбекистоннинг янги тараққиёт даврида таълим - тарбия ва илм - фан соҳаларини ривожлантириш чора тадбирлари тўғрисида " ги ПФ - 6108 - сон фармони.
3. "2022 — 2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси" тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги ПФ-60 -сонли Фармони
4. М.Х.Тўхтаходжаеванинг умумий таҳрири остида. Педагогика дарслик.Т.: Ўзбекистон файласуфлари Миллий жамияти, 2010.
5. Ҳошимов К.,С.Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. Ўқув қўлл.И-жилд. – Т.: Ўқитувчи1999.
6. Ҳошимов К., С.Очил. Ўзбек педагогикаси антологияси. Ўқув қўлл.И-жилд. – Т.: Ўқитувчи,2010.
7. Ходжаев Б.Х. Умумий педагогика назарияси ва амалиёти. Дарслик – Т.: САНО-СТАНДАРТ, 2017.
8. Sh.E.Toxtiyarova, Sh.V.Shokirova, N.Z.Abidova. Nutqning ontogenezda rivojlanishi. O'quv qo'llanma. T.;2020
9. Kolesnikova G. I., Kabaruxina I.A. Spesialnaya psixologiya i pedagogika. Rostov na - Donu. 2007.
10. Spesialnaya psixologiya. Pod. red Lubovskogo V.I. Uchebnoe posobie. M.: 2005.
8.